

## O‘ZBEKISTONDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASHNING HUQUQIY ASOSLARI

*Sheraliyev Xayitali Ro‘zaliyevich*  
*Magistratura tinglovchisi, O‘zbekiston Respublikasi*  
*Jamoat Xavfsizligi Universiteti*

### ANNOTATSIYA

O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning huquqiy asoslarini takomillashtirish davlatning muhim ustuvor vazifalaridan biridir. Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlashda, shuningdek jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini mustaxkamlashda muhim o‘rin tutadi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning huquqiy asoslari esa jamiyat a'zolarining ijtimoiy himoya va iqtisodiy barqarorlikdagi manfaatdorligi bilan bog‘liq. Mazkur maqolada O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning huquqiy asoslari tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** oziq-ovqat xavfsizligi, iqtisodiy xavfsizlik, GFSI, indeks, inson salomatligi, global hamkorlik, iste‘molchilar xavfsizligi, oziq-ovqat mahsuloti sifati va qo‘chimchalari

## LEGAL BASIS OF ENSURING FOOD SAFETY IN UZBEKISTAN

Khayitali Rozaliyevich Sheraliyev  
Master's student, University of Public Safety of the Republic of Uzbekistan

### ANNOTATION

Improving the legal basis of ensuring food safety in Uzbekistan is one of the important priority tasks of the state. Ensuring food safety plays an important role in ensuring economic security, as well as in strengthening the socio-economic stability of society. The legal basis of ensuring food safety is related to the interest of society members in social protection and economic stability. This article analyzes the legal basis of ensuring food safety in Uzbekistan.

**Key words:** food security, economic security, GFSI, index, human health, global cooperation, consumer safety, food quality and labels.

## ПРАВОВАЯ ОСНОВА ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПИЩЕВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Шералиев Хайтали Рузалиевич  
магистрант Университета общественной безопасности  
Республики Узбекистан

### АННОТАЦИЯ

Совершенствование правовой базы обеспечения продовольственной безопасности в Узбекистане является одной из важных приоритетных задач государства. Обеспечение безопасности пищевых продуктов играет важную роль в обеспечении экономической безопасности, а также в укреплении социально-экономической стабильности общества. Правовая основа

обеспечения безопасности пищевых продуктов связана с заинтересованностью членов общества в социальной защите и экономической стабильности. В данной статье анализируются правовые основы обеспечения безопасности пищевых продуктов в Узбекистане.

**Ключевые слова:** продовольственная безопасность, экономическая безопасность, GFSD, индекс, здоровье человека, глобальное сотрудничество, безопасность потребителей, качество и маркировка продуктов питания.

### **Kirish**

Oziq-ovqat xavfsizligi oziq-ovqat mahsulotlarini to'siqlarsiz, qulay qabul qilishni, insonning salomatligi va normal fiziologik faoliyatini ta'minlash uchun yetarliligi, iste'mol uchun xavfsiz va sifat standartlariga javob berishini, bu tizimning tabiiy ofatlar, iqlim o'zgarishi, iqtisodiy inqirozlar va mojarolar kabi turli tahdidlarga chidamli bo'lishini taqozo etadi.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash davlat siyosatining muhim yo'nalishi bo'lib, u aholi salomatligi va farovonligini kafolatlaydi, ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qiladi. Oziq-ovqat xavfsizligi – insonning sog'ligi va hayotiy faoliyatini saqlab turish uchun yetarli, xavfsiz va to'yimli oziq-ovqat mahsulotlaridan jismoniy, ijtimoiy va iqtisodiy foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan holatdir.

Oziq-ovqat xavfsizligi barqaror rivojlanishning ajralmas qismi bo'lib, u jamiyat barqarorligi va farovonligini ta'minlaydi. U ijtimoiy tenglik, iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlikka bevosita ta'sir qiladi. Oziq-ovqat xavfsizligisiz ocharchilikka barham berish, tengsizlikka qarshi kurashish va iqtisodiy farovonlikka ko'maklashish kabi barqaror rivojlanish maqsadlariga erishib bo'lmaydi.

Bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligi hukumatlar, xalqaro tashkilotlar va butun jamiyat oldida turgan eng dolzarb va murakkab muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda 828 milliondan ortiq odam surunkali ochlikdan aziyat chekmoqda. Ko'plab mamlakatlarda to'yib ovqatlanmaslik, ayniqsa, bolalar o'rtasida jiddiy muammo bo'lib qolmoqda, bu esa jismoniy va ruhiy rivojlanishning kechikishiga olib keladi.

2023 yilgi Global ochlik indeksida O'zbekiston 125 mamlakat ichida 21-o'rinni egalladi. Bu 2023 yilgi Global ochlik indeksida O'zbekistonda 5,0 ball bilan ochlik darajasi past mamlakatlar qatorida demakdir. Ushbu indeksning butun dunyo uchun o'rtacha darajasi 2023 yilda 18,3 ballni tashkil qildi.

Ayni paytda rivojlangan mamlakatlarda ortiqcha oziq-ovqat iste'mol qilish muammosi mavjud bo'lib, bu semirish va unga bog'liq bo'lgan qator kasalliklar, xususan, kandli diabet, yurak-qon tomir kasalliklarini keltirib chiqarmoqda.

O'zbekiston Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va aholi salomatligi qo'mitasi Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti bilan hamkorlikda o'tkazgan tadqiqot natijalariga ko'ra, 18-64 yoshdagi aholining yarmi ortiqcha vaznga ega, ularning 20 foizi semirishdan aziyat chekmokda.

Bu boradagi paradoks shundan iboratki, iqtisodiyoti qishloq xo'jaligiga asoslangan mamlakatlar aholisi, qashshoq, to'yib ovqat yemaydi, aksincha sanoati rivojlangan mamlakatlar aholisi ortiqcha vaznga qarshi kurashadi. Nima uchun shunday? Oziq-ovqat qishloq xo'jaligida yetishtiriladi-ku. Buning sababi shundaki,

qishloq xo‘jaligiga asoslangan rivojlanayotgan mamlakatlar aholisi, past soliq to‘laydi, rivojlangan mamlakatlar aholisi, masalan, G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida soliq darajasi yuqori, daromaddan 45-55 foizgacha soliq to‘lanadi. Bu aholi foydasiga milliy daromadni qayta taqsimlash imkonini beradi.

Yuqorida qayd etilgan sonlarni oz-muncha deb bo‘lmaydi, chunki rivojlanayotgan mamlakat aholisi bunday kamchiliklarga duch kelishi, albatta, insonni oddiy fuqaro sifatida yurt kelajagi to‘g‘risida chuqur o‘ylantiradi. Umuman olganda bu sohada hech qanday suiste‘moliklarga yo‘l qoyib bo‘lmaydi, sababi bunday suiste‘mollik inson taqdirini hal qilishi hech gap emas. Bu bir qancha olimlar tomonidan ham tavsiflab berilgan. Jumladan, Oziq-ovqat xavfsizligi oziq-ovqat zanjiridagi barchani o‘z ichiga oladi. Iste‘molchilar xavfsizligini ta‘minlashda mas‘uliyatdan voz kechishga o‘rin yo‘q”. - deydi Maykl R. Teylor. Shu bilan bu sohadagi yutuqlar ham asta-sekinlik bilan namoyon bo‘lib bormoqda. Eng yaqqol misol esa O‘zbekiston 2019-2022 yillarda oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha eng yuqori o‘shirdagi 10 davlat ichida birinchi o‘rinni egalladi”, – deyiladi indeksda. Shuningdek, 2023-yil 7-8 sentyabrda Samarqand shahrida BMT Oziqovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti ko‘magida tashkil etilgan ushbu konferensiyaning aynan bizning yurtimizda bu sohaga nisbatan e‘tibor oshib borayotganlini isbotlaydi.

### **Mavzuning o‘rganilganlik darajasi**

Ma‘lumki, davlatning muayyan ijtimoiy munosabalarida kamchiliklar bor ekan, demak, bu avvalo uning huquqiy jihatdan tartibga solinishida bo‘shliqlar mavjud ekanligini bildiradi. Shu boisdan muammolarni aniqlash uchun eng avvalo ushbu sohani tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga qarasaq maqsadga muvofiqdir. Ulardan eng asosiysi 1997-yil 30-avgust kuni qabul qilingan **‘Oziq-ovqat xavfsizligi va sifati‘** qonuni qabul qilindi va ushbu qonun maqsadi qonunda belgilanishicha aholini sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsuloti bilan ta‘minlashning huquqiy asoslarini belgilab berishdir. Shuningdek ushbu hujjat oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi yagona qonun hujjati hisoblanadi.

Ikkinchisi, mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta‘minlashning chora-tadbirlari to‘g‘risida 2018 yil 16-yanvarda qabul qilingan Prezident farmoni mavjud. Bu qonunosti hujjatlarga misol bo‘la oladi.

Uchinchisi oziq-ovqat xavfsizligi va ichki bozorda narxlar barqarorligini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi “Vazirlar Mahkasi tomonidan 31-aprel 2022-yilda qabul qilingan qaror.

To‘rtinchisi , Oziq-ovqat mahsulotlariga, ularni ishlab chiqarish vositalariga va xalq iste‘moli mollariga sanitariya-epidemiologik xulosa berish to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida qaror bor bo‘lib, unda mahsulotlarning sanitariya ekspertizadan o‘tkazilishi va ularning iste‘mol uchun yaroqliligi haqida xulosa berishni o‘z ichiga oladi.

Xalqaro tajribaga nazar tashlaydigan bo‘lsak, xorijiy davlatlarda ham bunday huquqiy hujjatlar mavjud. Bunga misol sifatida ularning quyidagi qonun hujjatlarini keltirib o‘tirishimiz joiz: Finland – Food akti(No . 297/2021). Ushbu akt maqsadi: iste‘molchilarning sog‘ligini hamda iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va oziqovqat mahsulotlarining va ovqatga qo‘shiladigan biologik faol qo‘shimchalar xavfsizligini ta‘minlash hamda oziq ovqat sifati va oziq-ovqat qoidalariga bog‘liq boshqa

standartlarning , shuningdek oziq-ovqat haqidagi ma'lumotlarning to'g'ri va aniq bo'lishini kafolatlashdan iboratdir. Yoki Irlandiyaga yuzlanadigan bo'lsak ularda ham Irland – Oziq-ovqat akti mavjudligini ko'ramiz . Bunday aktdan oziqovqat qonunchiligining buzilishini aniqlash, oldini olish va oldini olish orqali oziqovqat zanjiri xavfsizligini ta'minlashni o'z oldiga maqsad qiladi. Ko'rinib turibdiku mamlakatimizda yetarlicha sohani tartibga solishga qaratilgan qonunlar va hujjatlar mavjud, lekin qonunchiligimizda ham bo'shliqlar yo'q emas. Misol uchun do'konlarimizda shunday mahsulotlar borki, unda na muvofiqlik sertifikatini na ishlab chiqaruvchi ma'lumotlari mavjud va ba'zi "tadbirkorlar" bunday bo'shliqdan ancha foyda ko'rmoqdalar. Lekin ular bunday mahsulotlarni yurtimizda ishlab chiqarib barchamizni xavfga solmoqdalar. Shuning uchun bunday mahsulotlar savdosiga chek qo'yishimiz va bu uchun tayinlanadigan jazo choralarini kuchaytirishimiz kerak. Bundan tashqari xalqaro hujjatlardan Anjumanda BMT Bosh Assambleyasining 2015-yil 25-sentyabrdagi 2030-yilgacha bo'lgan davrda Barqaror rivojlanish sohasidagi rezolyutsiyasi va ushbu hujjatda aks etgan 17 ta maqsad va vazifalar yuzasidan fikr mulohazalar bildirilgan .Xususan, BRMning ikkinchi maqsadi – oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, ovqatlanish ratsionini yaxshilash hamda agrar sohani barqaror rivojlantirishga ko'maklashish yuzasidan

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Oziq-ovqat xavfsizligiga oid ilmiy atamalar, tushunchalar va fikrlarni tizimli tahlil qilish. Tadqiqot ishini bajarishda kuzatish, ma'lumotlarni yig'ish, taqqoslash, mahalliy va xorijiy olimlarning oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha qarashlari, sohadagi mavjud muammolar va ularning echimlari bo'yicha izlanishlar hamda sohaga doir qonuniy va meyoriy-huquqiy hujjatlar o'rganilib, hulosa va takliflar ishlab chiqildi. Shuning tadqiqotda ilmiy bilishning analiz va sintez, induktsiya va deduktsiya, tizimli yondoshuv, guruhlash, adabiyotlar sharhi, miqdor va sifat korsatkichlarni hisoblash, maqsadli rivojlantirish usullaridan foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar**

O'zbekistonda mustaqillikka erishgan vaqtdan boshlab, agrar islohatlarga alohida e'tibor qaratildi, aynan agrar islohatlar asosida qishloq xo'jaligi ekinlari tarkibini qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish borasida uzoq vaqtga mo'ljallangan strategik reja va dasturlar asosida oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlash chora-tadbirlari ishlab chiqildi. Mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda avvalo quyidagi shartlarni bajarish kerak bo'ladi:

–davlat va mintaqa miqiyosida muvozanatlashgan xom-ashyo va oziq-ovqat resurslarini shakllantirish, saqlash va yetkazib berish maqsadida agrosanoat ishlab chiqarishini tashkil etish, shuningdek, agrosanoat majmualarining eksport salohiyatini barqaror rivojlantirish;

–aholi turmush darajasi yanada yaxshilash va sifati iste'mol mahsulotlari bilan ta'minlash, tibbiyot me'orlari bo'yicha yetarli darajadagi oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilishga mos keladigan daromadlar olish uchun sharoitlar yaratish;

–kerakli bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari va xom-asheni import qilish uchun zarur bo'lgan valyuta resurslari zahiralari (shu jumladan eksportdan olingan mablag'lar hisobiga) yaratish;

–mamlakatning oziq-ovqat mahsulotlari bilan o'zini o'zi ta'minlashning barqaror

darajasini qo'llab-quvvatlash hamda import o'rnini bosadigan mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish.

Ushbu shartlarning bajarilishi oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlashning birlamchi vazifalari hisoblanadi, har bir mamlakat shu shartlar asosida o'ziga xos yo'nalishlarni aniqlab oladi va kerakli chora tadbirlarni amalga oshiradi. Mamlakatimizda oziq-ovqat havfsizligi borasidagi keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda, hukumat tomonidan amaliyotga tadbiriq etiladigan farmonlar, qarorlar va davlat dasturlarida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlarini aks etishi ahamiyatlidir. Mamlakatimizda 2022 yil holatiga oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlashga aloqador 4 ta qonun, 138 ta qaror (21 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, 80 ta O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, 27 ta O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari hamda 10 ta O'zbekiston Respublikasi vazirlik va qo'mitalar qarorlari) amaliyotga joriy etilgan va lex.uz O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasida joylashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 30 avgustdagi —Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to'g'risidagi, O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 29 apreldagi —Aholini ayrim turdagi oziqovqat mahsulotlari bilan ta'minlashga doir choralar to'g'risidagi hamda O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 25 oktyabrdagi —O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga aholini asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan kafolatli ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha kiritish to'g'risidagi qonunlari aynan oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlashga xizmat qiluvchi qonunlar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 22 dekabrdagi №PQ-58 sonli —Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida islohotlarni tadqiq qilish, strategik rejalashtirish hamda boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida, 2020 yil 16-dekabrdagi №PQ-4922 sonli —O'zbekiston Respublikasining BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti, BMT Qishloq xo'jaligini rivojlantirish xalqaro jamg'armasi hamda BMT Butunjahon oziq-ovqat dasturi bilan hamkorligini International Journal of Finance and Digitalization [www.ijfd.uz](http://www.ijfd.uz) ISSN: 2181-3957 Vol. 2 Issue 01, 2023 International Journal of Finance and Digitalization Email: [ijfduz@gmail.com](mailto:ijfduz@gmail.com) kengaytirish va chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida, 2020 yil 9-sentabrdagi №PQ-4821 sonli —Respublika oziq-ovqat sanoatini jadal rivojlantirish hamda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'laqonli ta'minlashga doir chora-tadbirlar to'g'risidagi qarorlari ham mamlakatimiz aholisining turmush darajasini yaxshilash va ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili sifatida oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlash zarurligini asoslab beradi. Oziq-ovqat havfsizligini ta'minlashda, oziq ovqat mahsulotlarining iste'mol imkoniyatlarini aniqlash uchun ularni uch guruhga ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bular: - oziq-ovqat mahsulotlari iste'molining jismoniy imkoniyatlari; - oziq ovqat mahsulotlari iste'molining iqtisodiy imkoniyatlari; - oziq ovqat mahsulotlari iste'molida ovqatlanish xavfsizligi. Bu borada yurtimizda olib boriladigan islohotlar, ishlab chiqilgan dasturlar ham diqqatga sazovor hisoblanadi. Oziq-ovqat mahsulotlari iste'molining jismoniy imkoniyatlari deyilganda mamlakatimizda mavjud oziq ovqat mahsulotlari qishloq xo'jalik yetishtirish, qayta ishlash, saqlash hamda aholiga

yetkazib berish imkoniyatlari tushuniladi. Ya'ni aholi ehtiëjini fiziologik me'èrlarga muvofiq oziq-ovqat mahsulotlari bilan qondirish bilan birga aholining turmush darajasi bilan bog'liq ravishda ularning sifatini ham ko'rib o'tilishi muhim hisoblanadi. Oziq-ovqat mahsulotlari iste'molining jismoniy imkoniyatlari mamlakatimiz hududida kerakli hajmdagi, xalqaro talab darajasidagi sifatli va assortimentdagi oziq-ovqat mahsulotlarining mavjud bo'lishi, hamda ularni uzluksiz yetkazib berish imkoniyatlarini o'z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, bunda aholi iste'mol qilinaëtgan mahsulot hajmining belgilangan minimal normalarga mosligini baholanadi. Oziq ovqat mahsulotlari miqdori va aholi soni o'rtasida to'g'ridanto'g'ri bog'liqlik mavjud bo'lib, aholi soni ortgani sari oziq ovqat mahsulotlariga bo'lgan talab ortib boradi. Mamlakatimizda aholi soni har yili o'tgan davrga nisbatan ortib bormoqda, 2021 yilning 1-yanvar holatiga 34,5 mln. kishi tashkil qiladi.

**1-jadval**

**Mamlakatimizda 2017-2021 yillarda oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlari.**

Ko'rsatkichlar	yillar				
	2017	2018	2019	2020	2021
Aholi soni	32120,5	32656,7	33255,5	33905,2	34558,9
Qishloq xo'jaligi ekinlari maydoni ming gektar	3474,5	3396,0	3309,4	3396,1	3260,7
Qishloq xo'jaligi mahsuloti, mlrd. so'm	148199,3	187425,6	216283,1	250250,6	302524,9
Sanoatda Oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish mlrd. so'm	24952,3	26001,2	37033,0	44014,0	55327,3
Narx indeksi (oziq ovqat mahsulotlari)	07,8	120,1	116,9	117,2	108,3

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizdagi aholi soni 2018 yilda 536,2 ming kishiga, 2019 yilda 598,8 ming kishiga, 2020 yilda 649,7 ming kishiga va 2021 yilda 653,7 ming kishiga ko'payib borgan. Aholi sonini o'zgarishini yillar kesimida chuqurroq tahlil qilsak doimiy o'sish tendensiyasiga ega bo'lganligini ko'ramiz. Aholiga asosiy oziq ovqat mahsulotlari yetkazib beruvchi soha qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan ekin maydonlari esa aksincha kamayish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ekin maydonlari 2018 yilda - 78,5 ming gektarga, 2019 yilda - 86,6 ming gektarga kamaygan 2020 yilda esa 86,7 ming gektar ortgan lekin 2021 yilga kelib - 135,4 ming gektarga kamayganligini ko'rishimiz mumkin. Aholi ehtiëjlari uchun asosiy oziq ovqat mahsulotlari yetkazib beruvchi qishloq xo'jaligi yerlarining kamayishi oziq ovqat mahsulotlari taqchilligini èki oziq ovqat inqirozini kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

**Xulosa va takliflar**

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun esa quyidagi tavsiyalarni ilgari surish zararli oqibatning bir qancha yumshatilishiga olib keladi.

1.Hosilni xilma-xillashtirish. Dehqon yoki fermerlar tomonidan faqat bir turdagi mahsulotlarni yetishtirishga e'tibor qaratish tuproq unumdorligini pasaytirishi

hamda hosilni kasalliklar va zararkunandalarga nisbatan nisbatan himoyasini zaifroq qilishi mumkin. Shu boisdan faqat bir turdagi emas, bir necha turdagi mahsulot yetishtirishi zarur, sababi agarda mahsulotlar iqlim o'zgarishi, tuproq sho'rlanishi yoki boshqa tabiiy omillar tufayli nobud bo'ladigan bo'lsa, ular boshqa muqobil imkoniyat mavjud bo'ladi, ya'ni boshqa yetishtirilga mahsulot mavjud bo'lganligi bois ular o'z dehqon yoki fermer xo'jaliklarini davom ettirishlar mumkin. Umuman olganda oziq-ovqat mahsulotlarning sifatli ravishda tayyorlanishi va yetib kelishi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlaydi.

2.Sohaga doir ta'limni qo'llab quvvatlash.Ma'lumki, oziq-ovqat xavfsizlikni muayyan talabga javob beradigan va yetarli ko'nikmalarga ega kadrlarsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Shu boisdan ularni tayyorlovchi ta'lim muassalarini yaratish va ularga imkoniyatlar yaratish sohani gullatish demakdir. Buning uchun eng avvalo sohada doir mutaxassislar hamda yetarlicha amaliyotga yo'naltirilgan darslik bo'lishi maqsadga muvofiq.

3.Global hamkorlikni oshirish. Shunday muammolar bo'ladiki, ularni davlatning tanho o'zi bartaraf etish salohiyatiga ega emas. Shunga o'xshash global muammolar sirasiga oziq-ovqat xavfsizligi ham kiradi. Misol uchun suv tanqisligi, iqlim o'zgarishi, global ishish va qurg'oqchilik kabi ba'zi misollar oziq-ovqat narxi yoki sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ularni bartaraf etishda davlatlar hamkorlik munosabatlar talab etiladi. Xose Graziano da Silva fikri bilan aytganda "Oziq-ovqat xavfsizligiga intilish biz duch keladigan turli muammolarni o'zaro bog'laydigan va global hamkorlikni yaratishga yordam beradigan umumiy mavzu bo'lishi mumkin."

4. Aholida to'g'ri ovqatlanish va sanitariya-epidemiologiya haqidagi ongning shakllantirish. Biz bu sohada yuqori o'rinlarga chiqmoqchi bo'lsak avvalambor oziq-ovqat xavfsizligiga oid fikr va qarashlarni o'zgartirishimiz zarur. Bizda esa haligacha bu soha haqida notog'ri qarashlar mavjud. Misol uchun oziq-ovqat xavfsizligi deyilganda ko'pchilik faqatgina oziq-ovqat mavjudligini va ular bilan oziqlanishnigina shunday atashadi, lekin bu mutlaqo xato tushuncha. Sababi oziqovqat tayyorlanish jarayonidan to uning iste'molchiga yetib borguniga qadar sifat standarti va talablariga javob berishi yoki uning inson salomatligi uchun hech qanday zararli ta'sir ko'rsatmasligi aslida oziq-ovqat xavfsizligi deb nomlanadi. Jacques Dioufning "Oziq-ovqat xavfsizligi nafaqat odamlarni oziqlantirish, balki barcha insonlarni xavfsiz, to'yimli, arzon oziq ovqat bilan ta'minlashdir." degan fikri bilan gapimizni yana bir bor isbotlashimiz mumkin. Bu vazifani bajarish bir qancha qiyinchiliklar olib kelishi mumkin, sababi yillar davomida shakllangan qarashlarni tezlikda o'zgartirishi mumkin emas. Lekin aholi o'rtasida targ'ibot, gigeyeniya rioya etish, shifokorlar tomonidan bepul tavsiyalar, sanitariyaga rioya etilishi ustidan qa'tiy nazorat kabi choralar orqali bu maqsadga erisha olamiz.

Biz oziq-ovqat xavfsiz deya taniladigan davlatni barpo etmoqchi ekanmiz, eng avvalo barcha o'zgarishlarni o'zimizdan boshlashimiz kerak. Chunki bunday mahsulotlarni sotib olayotgan, uni iste'mol qilayotgan ham insonlar. Shuning uchun hech qachon ushbu qoidani yoddan ko'tarmasligimiz lozim: to'g'ri tanlov qilish - eng yaxshi himoya zero biz bu mahsulotlarni sotib olishda e'tiborli bo'lishni boshlasak, sifatsiz mahsulotlar ham o'z egasini topmay yana asl ishlab chiqaruvchilariga qaytadi.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Oziq-ovqat xavfsizligi va sifati to‘g‘risidagi qonuni” – 1997-yil 30-avgust.
2. <https://www.foodsafely.org/uz/gida-guvenligi/gida-guvenligi-nedir/>
3. GLOBAL FOOD SECURITY INDEX 2022 REPORT – ECONOMIST IMPACT  
<https://impact.economist.com/sustainability/project/food-security-index/downloadthe-index>
4. O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini taminlashning ayrim masalalari – Yuldashev N.A, <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-oziq-ovqatxavfsizligini-ta-minlashning-ayrim-masalalari/viewer>
5. Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta`minlashning chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Prezident farmoni – 2018-yil 16-yanvar
6. <https://www.foodcertificate.org/uz/gida-guvenligi/> - Food safety standard
7. Oziq-ovqat xavfsizligini ta`minlash – davr talabi, Xalq so‘zi gazetasi  
<https://xs.uz/uz/post/oziq-ovqat-khavfsizligini-taminlash-davr-talabi>
8. OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI: MAVJUD MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI – Taraqqiyot strategiyasi markazi matbuot xizmati,  
<https://strategy.uz/index.php?news=1310&lang=uz>